

### Qisqartmalar va ularning nazariy tadqiqi

Anvarbekova (Maxamadjonova) Shoiraxon

ToshDO 'TAU Tarjima nazariyasi va amaliyoti fakulteti sinxron tarjima  
yo 'nalishi 2 bosqich magistranti

**Annotatsiya:** Yozuv paydo bo'lgandan to hozirgi kungacha tilshunoslikning bir qismi bo'lgan qisqartmalardan foydalanib kelinadi. Ushbu maqolada qisqartmalarning qanday yuzaga kelganligi va uning hozirgi kunda qanday turlari borligi haqdida nazariy bilimlarni o'rganishimiz mumkin bo'ladi.

**Kalit so'zlar:** Abbreviatura, akronim, initializm, qisqartma so'zlar, qisqartma matnlar

**Annotation:** Abbreviations that have been a part of linguistics since the beginning of writing are used. In this article, we will be able to learn theoretical knowledge about how abbreviations came about and what types they are today.

**Key words:** Abbreviation, acronym, initialism, short words, short texts

Har qaysi soxani qamrab olgan axborot texnologiya asrida muloqot qilish va yozishmalar allaqachon hayotimizning ajralmas qismiga aylanib ulgurgan. Kun sayin juda ko'plab ma'lumotlarga ega bo'lib kelmoqdamizki, o'zmiz uchun har narsaning qulay uslubini qilishga odatlangan biz odamlar yozishmalarimizda muloqlarimizda ham ixchamlikka intilib kelmoqdamiz. Bunda bizga albatta tilshunoslikda abbreviaturalar qisqartma so'zlar deb ataluvchi so'z va so'z birikmalarini qisqartish usuli qo'l keladi. Qisqartma o'zi nima ekanligi nomidan ham yaqqol namoyon bo'lib turganidek bu biror bir jumlanli qisqartirish ixchamlashtirishdir.

"Qisqartma", "qisqartirilgan so'z", tushunchasi ostida, "qisqartma leksema" ko'pincha "leksik qisqartma" deb tushuniladi - so'z yoki turg'un so'z birikmasining qisqartmasi bilan hosil bo'lgan, lug'at tarkibining elementi sifatida alohida leksema xususiyatlariga ega bo'lgan ot turkumiga oid so'z

Qisqartma (lotincha "brevis", italyancha "abbreviatura" – qisqa) so'zidan olingan bo'lib so'z yoki birikma qisqartirilishi orqali hosil bo'lgan bosh harflarning alifbo nomi yoki unga kirirtilgan so'zlarning boshlangich tovushlari bilan o'qiladigan so'z degan ma'noni beradi

Qisqartirish murakkab lingvistik hodisa bo'lib, lug'at, so'z shakllanishi, aloqa va axborot nazariyasi, semiotik nazariya va motivatsiya nazariyasi sohasidagi bir qator nazariy muammolar bilan bog'liqdir.

Tilshunoslikning amaliy yo'nalishiga aylangan qisqartma so'zlar yillar davomida olimlar tomonidan o'rganilib, ko'plab ilmiy manbalarda yoritilib kelinmoqda. Qisqartma so'zlar qadimgi yozuvlarda ham ishlatingan. Buning asosiy sababi xuddi hozirgi kunda biz nutqimizni ixchamlashtirish maqsadida, joy tejash uchun ishlatingan kabi qadimgi qo'lyozmalarda ya'ni matnli ma'lumotlarning tashuvchisi (qayin po'stlog'i, keramik plitalar, pergament, papirus va boshqalar) va tez-tez ishlataladigan so'zlar va iboralarni yozish tezligida joyni tejash va yozishni soddalashtirish maqsdadida qisqartma so'zlardan foydalanishgan. qisqartma so'zlardan foydalanish tarixiga nazar tashlaydigan bo'lsak, qisqartma so'zlar orqali so'z yasash usuli ilk bor qadimgi Yunoniston va Rimda shakllana boshlagan. Rimdagi Kolizey tarixiy obidasida qadimgi

## Ilmiy elektron jurnali

qisaqartmalar ham uchraydi. Shuningdek, qadimgi Yunon-Rim tangalarida ham bunday qisqartmalar qo'llangan. Qisqartmalar yoki qisqartmalarning kelib chiqish tarixi yozma tilga ega bo'lgan barcha xalqlar tomonidan azaldan yozma ravishda qo'llanilgan.

So'zlarning grafik qisqartmasi Shumer davrida, Misr yozuvining soddalashtirilgan shakli bo'lgan Rosetta toshidagi demotik yozuvning bir turi bunga yaqqol misol bo'la oladi. Sivilizatsiya rivojlanishining Yunon-Rim davrida so'zlarning qisqarishi lotin alifbosini bilan bog'liq edi. Ko'pgina tadqiqotchilar yunon abrevatsiyasi miloddan avvalgi III asrdan va milodiy IX asr oxirigacha kelib chiqqanligini ta'kidlaydilar.

XX asrga kelib qisqartma so'zlar keng ko'lamma Yevropa tillarida qo'llanila boshlagan sekin asta boshqa tillarda ham ularning tuzilishi, yasalish asosi yuzaga kelgan. Qisqartmalarni tadqiq qilishda dunyo olimlaridan: O. Esperson, D.I.Alekseev (Belorussiya 1958), L.Blumfeld, V.P. Korovushkin, S.B.Berlizon (Moskva, 1963), R.I.Mogilevskiy (Tbilisi, 1966), V.V.Borisov (Moskva, 1972), L.B.Tkacheva, V.V.Borisov, I.V.Arnold, Kennon Garland (London, 1989), A.A. Bezrukova (Moskva, 1999), P.Shadiko (Varshava, 2000), O.G.Kosareva (Tver, 2003), J.Algeo (Kolumbiya, 2004), E.P.Voloshin (Moskva, 2005), I.V.Varfolomeva (Moskva, 2006), hamda o'zbek tilshunos olimlaridan Z.A.Alikulov, M.M.Adilov, M.T.Irisqulov, Z.I.Sanoqulov, A.Hojiyev kabi olimlar o'zlarining ilmiy nazariy qarashlari o'rganishlari bilan o'z hissalarini qo'shishgan.

O. G. Kosareva: "Qisqartma kommunikativ birliklarning moddiy qobig'ini kamaytiradi va shu bilan axborot oqimi tezligini oshiradi" deb ta'kidlaydi. F.Pavlenkovning lug'atidagi mazkur so'zning talqini bo'yicha: abbreviatura – "yozma va bosmaxonadagi qisqartma" deb keltiriladi. Y.Odilov ham bu tushunchalarni chegaralab qo'llash, farqlab yondashish haqida quyidagi fikrini bildirgan edi: "tadqiqotlardan qisqartma so'z va qisqartirish hodisasi farqlanmagani hamda qisqartma so'zlarning turlari yetarlicha tavsiflanmagani ayon bo'ladi. Shu o'rinda so'zлarni qisqartirish usullari bilan hosil bo'ladigan qisqartma so'zlar tushunchasi jiddiy farqlanishi zarur"

Oxirgi yillarda zamnaviy yevropa tillaridan foydalanish qisqartmalar soni va ishlatalish chastotasini oshirdi desak mubolag'a bo'lmaydi. Turli tillarda tuzilgan qisqartmalarning yaralish xususiyatlari qiziqish, ma'nosini anglash va ulardan foydalanishning o'ziga xos xususiyatlari bilish bugungi davr uchun juda muhim sanaladi. Bu jarayonning murakkabligi muammoning dolzarbligini belgilaydi, qisqartmalarni sinchkovlik bilan o'rganishga murojaat qilish zaruratini yanada oshiradi. Modernizatsiya jarayonida iqtisodiy, ijtimoiy, va ilmiy sohalarda yangi tushunchalar paydo bo'lib, ularni ifodalash uchun qisqartirilgan shakllar yaratilganligi ham qisqartmalarni o'rganish va anglashga bo'lgan ehtiyojini paydo qiladi. 1976-yilda Z. A. Alikulov tomonidan "Zamonaviy o'zbek tilidagi qisqartmalar" mavzusida birinchi ilmiy dissertatsiya himoya qilingan. Bu tadqiqotda qisqartmalarning shakllanishi, o'zbek tilidagi rivojlanishi va rus tili bilan qiyosiy tahvilini amalga oshirilgan. Ushbu ilmiy yondashuv qisqartmalarni lingvistik nuqtayi nazardan tadqiq etish uchun muhim asos bo'ldi.

Qisqartmalarni o'rganish jarayonida O.F.Hazratqulovning ishi ham alohida o'rin tutadi, u abreviatsiyani turli tizim tillarida so'z hosil qilishning maxsus usuli sifatida ko'rib chiqqan.

Bugun kun sayin yangi texnika-texnologiyalar, atamalar, qisqartmalar paydo bo'layotganligi aynan abbreviaturalar yo'nalihsining hali ochilmagan qirralari, o'rganilmagan jihatlari ko'pligidan dalolat beradi. Jamiyat nutqida tez-tez qo'llaniladigan va chet tillaridan o'zlashtiriladigan qisqartmalarni doimiy tarzda o'rganib borib, ilmiy tadqiqotlar olib borish tilshunoslik sohasi taraqqiyoti uchun juda muhim. Tilshunoslikda abbreviatura so'z birikmalarini qisqartirish orqali hosil qilingan so'zlar hisoblanadi. Ma'lumot sifatida ta'kidlash joizki, abbreviaturalar talaffuzidagi farqlarga ko'ra akronim va initializm kabi turlarga bo'lib o'rganiladi. Akronim har bir so'zining birinchi harflarining birikmasidan tashkil topadi, bosh harflar bilan yoziladi va bitta

# ILM FAN XABARNOMASI

## Ilmiy elektron jurnali

so‘z sifatida aytildi va talaffuzda qisqartma harflari emas, ularning birlashgan holati eshitiladi. Masalan **NATO**: *North Atlantic Treaty Organization* — Shimoliy Atlantika Sharhnomasi Tashkiloti, yoki o‘zbek konteksti O‘zMU — *O‘zbekiston Milliy Universiteti*. Initializm — bir nechta so‘zning bosh harflaridan hosil qilingan qisqartma bo‘lib, harflar alohida-alohida talaffuz qilinadi. Misol uchun **BBC** — *British Broadcasting Corporation*. O‘zbek kontekstida: ATM — *Avtomatlashtirilgan to‘lov mashinasi*, DSQ — *Davlat Soliq Qo‘mitasi*. Ushbu abbreviaturalarning faqrlanishini osonlashtirish uchun quyidagicha jadval tuzsak bo’ladi:

Turi	Talaffuzi	Namuna (ingliz)	Namuna(o’zbek)
Akronim	Bir butun so‘z sifatida talaffuz qilinadi	<b>UNESCO</b> - <i>United Nations Educational, Scientific and Cultural Organization</i>  <b>COVID</b> - <i>Coronavirus Disease</i>	<b>OTM</b> – <i>Oliy ta’lim muassasasi</i>  <b>O‘zLiDeP</b> – <i>O‘zbekiston Liberal Demokratik Partiyasi</i> .
Initializm	Har bir alohida harfi taluz qilinadi	<b>NYC</b> – <i>New York City</i> <b>PDF</b> – <i>Portable Document Format</i>	<b>TM</b> – <i>Tashqi ishlar vazirligi</i> <b>OAV</b> – <i>Ommaviy axborot vositalari</i>

Ilmiy yozuvda ishlatiladigan qisqartmalarning ham ikki turi mavjud. Bularga standart qisqartmalar va nostandart qisqartmalar kiradi. O‘lchov birliklari (gr – gramm, m – metr, sm – santimet) yoki kimyoviy elementlar jadvalidagi qisqa shakllari (Na – natriy, Ca – kaliy va boshqalar) standart qisqartmalar hisoblanadi. Ushbu qisqartmalar ma’nosи qisqartma so‘z imlosidan keyin izohlanishi shart emas. Sababi, ushu qisqartmalar barcha uchun tushunarli va ommaviy tarzda qabul qilingan. Nostandart qisqartmalar esa o‘quvchi yoki tinglovchiga notanish bo‘ladi. Nostandart qisqartmalardan yozma yoki og‘zaki nutqda foydalanganda ularga izoh berib o‘tish maqsadga muvofiqidir. SHuni ham ta’kidlab o‘tish kerakki, vaqtlar o‘ztgani sayin va axborot takkomilashuvi natijasida ayrim nostandart qisqartmalar standart holatiga ham o‘tishi mumkin. Misol uchun **ID** – identifiaktion (foydalanuchini tasdiqlash identifikatsiya qilish) qisqartmasi qo’llanila boshlaganda unga albatta izoh kerak bo‘lgan, bugungi kunga kelib esa, bu qisqartma barcha uchun tushunarli abbreviaturaga aylanib ulgurgan.

Shaklanish uslubiga ko‘ra ham qisqartmalarni quyidagicha tasniflashimiz mumkin:

- Har bir sozning bosh harflaridan hosil bo‘ladigan qisqartmalar – BMT (Birlashgan millatlar tashkiloti) OAK (Oliy attestatsiya komissiyasi), NBU (National bank of Uzbekistan)
- so‘zlarning bosh bo‘laklari birikmasidan hosil qilinadigan qisqartmalar – Wi-Fi (wireless fidelity), TurQo’m (Turizm qo‘mitasi)
- Aralash holatda ya’ni so‘zning bosh bo‘laklari hamda bosh harflardan tashkil topgan qisqartmalar – O‘zMU (O‘zbekiston Milliy Universiteti), e-mail (electronic mail)

- so‘z birkimasi tarkibidagi birinchi so‘zning birinchi bo‘g’inini qolgan so‘zlarni qisqartirmay qo’shish usuli bilan yasalgan qisqartmalar – O’zgazloyiha, O’zdonmahsulot

Kuzatishlarimiz shuni ko‘rsatadiki, ingliz tilidan o‘zbek tiliga o‘zlashgan abbreviaturalar salmog‘i ancha keng. Bugungi kunda ko’plab hamyurtlarimiz ham o‘zbek tilidagi qisqartmalarga nisbatan ingliz tilidagi abbreviaturalardan ko’p foydalanishadi, lekin aksariyat odamlar ushbu qisqartmalarning asli qaysi so‘zdan kelib chiqqanligini anglashda qiyinchiliklarga duch kelishadi. Aynan shunday holatlarda har bir sohada xoh tibbiyot bo’lsin xoh turizm, iqtisodiyot sohalarida bo’lsin keng ishlatalanayotgan qisqartma so‘zlarning to’gri tarjimasi ahamiyatli hisoblanadi. Ushbu qisqartmalarning qanday uslullarda tillardan boshqa tillarga tarjima qilinishi ham alohida o’rganiladigan katta mavzudir.

### Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Hojiyev A. Lingvistik terminlarning izohli lug‘ati. – Toshkent: 1985. – B.166
2. Abduaizov A.A tilshunoslik nazariyasiga kirish Toshkent. Sharq 2010 176-b
3. Tilshunoslikda qisqartmalar va ularning to‘liq shakli o‘rtasidagi munosabat Gavhar Salomova
4. Zamonaviy rus va o‘zbek tillarida abbreviaturalarning shakllanishi va funksiyalari (oav materiallari asosida) Sharipova Mu’tabarjon Kamolovna Buxoro – 2024
5. INGLIZ VA RUS TILLARIGA OID ABBREVIATURALAR XUSUSIDA Quziyeva Taxmina Faxriddinovna 2023
6. Одилов Ё.Р. Глобаллашув даври публицистикаси тилининг тараққиёти: монография. – Тошкент: Nodirabegim, 2020. – B.35.